


VII. KORXONA VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)


Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni (2022- yil 1- iyul holatiga, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga 41939 tani tashkil etib, ulardan 39611 tasi yoki 94,4 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 4894 taga yoki 13,2 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022- yil yanvar-iyun oylari davomida viloyatimizda 5232 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1405 taga kamaygan.


Ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi
(2022- yil 1- iyul holatiga)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>yakunga nisbatan foizda</i>
Jami	41 939	100,0	39 611	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7 986	19,0	7 447	18,8
Sanoat	5 586	13,3	5 228	13,2
Qurilish	3 566	8,5	3 424	8,6
Savdo	12 225	29,1	11 491	29,0
Tashish va saqlash	1 044	2,5	1 011	2,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 147	5,1	1 974	5,0
Axborot va aloqa	482	1,1	465	1,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	849	2,0	813	2,1
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	8 054	19,4	7 758	19,5


Korxonalar va tashkilotlar soni

	2022-yil 1-iyul holatiga ro'yxatga olingan	shundan:	
		tashkil topdi	tugatildi
Viloyat bo'yicha:	41939	5232	1049
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	7810	719	347
Shahrisabz	2367	302	42
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	2189	328	49
Dehqonobod	1952	266	54
Qamashi	2883	390	73
Qarshi	3011	340	51
Koson	3255	392	47
Kitob	2974	317	42
Mirishkor	1703	277	20
Muborak	1401	170	67
Nishon	1859	227	19
Kasbi	1998	355	65
Ko'kdala	1180	162	8
Chiroqchi	2396	331	48
Shahrisabz	2114	305	39
Yakkabog'	2847	351	78


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga, birlikda)





Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar- iyun oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar-iyun oylarida eng katta ulushni savdo sohasi – 35,0 % (1831 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 23,4 % (1223 ta), sanoat – 18,3 % (958 ta) va boshqa turlar – 10,1 % (530 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- iyul holatiga, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- iyul holatiga, birlikda)



2022- yil 1- iyul holatiga 34737 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar– 10335 ta, oilaviy korxonalar– 5055 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 18601 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 43 ta, unitar korxonalar – 123 ta va boshqalar – 580 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2022- yil yanvar-iyul oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida 5232 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 78,8 % tashkil etmoqda.

Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 2517 ta, oilaviy korxonalar 1248 ta, xususiy korxonalar 1252 ta, muassasalar 113 ta va boshqalar 102 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- iyul holatiga 5628 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1447 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5055 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 1088 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatmayotgan oilaviy korxonalar soni 573 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 359 taga oshganligini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2022- yil yanvar-iyun oylarida, birlikda)




2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi G'uzor (208 ta), Shahrisabz (158 ta), Qarshi (150 ta), Koson (148 ta), Chiroqchi (122 ta), Qarshi shahri (96 ta), Qamashi (71 ta), Ko'kdala (61 ta), Kitob (58 ta), Dehqonobod (49 ta), Muborak (34 ta), Nishon (25 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Aksincha, Shahrisabz shahar (24 ta), Mirishkor (23 ta), Yakkabog' (15 ta), Kasbi (6 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (2022- yil 1- iyul holatiga, birlikda)


Tashkiliy - huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga 19390 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2861 taga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rsatmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 18601 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2605 taga yoki 16,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2517 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 686 taga yoki 78,6 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida soni (1- iyul holatiga, birlikda)




2022- yil 1- iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamiyati ulushi Qarshi shahrida 22,6 %, Koson 10,6 %, Qamashi 8,6 %, Yakkabog' 7,7 %, Qarshi 6,2 %, Kasbi 5,8 %, Chiroqchi 5,6 %, Mirishkor 5,5 %, Nishon 4,8 %, Kitob 4,7 %, G'uzor 4,0 %, Muborak 3,9 %, Shahrisabz shahrida 3,6 %, Shahrisabz 2,9 %, Ko'kdala 2,0 % va Dehqonobod tumanlarida 1,6 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2022- yil 1- iyul holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonalar</i>	<i>Xorijiy korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	243	158	85
G'uzor	12	9	3
Dehqonobod	15	10	5
Qamashi	14	10	4
Qarshi	16	10	6
Koson	24	14	10
Kitob	18	12	6
Mirishkor	9	5	4
Muborak	10	5	5
Nishon	17	13	4
Kasbi	8	3	5
Ko'kdala	4	3	1
Chiroqchi	10	8	2
Shahrisabz	6	3	3
Yakkabog'	18	10	8
Qarshi sh.	56	41	15
Shahrisabz sh.	6	2	4

Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, foizda




Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma’lumotlarni 2022- yil 1- iyul holatiga ko‘rsak eng ko‘p sanoatda 104 ta (42,8 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 53 ta (21,8 %) hamda savdoda 44 ta (18,1 %), qurilishda 13 ta (5,3 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda mos ravishda 8 ta (3,3%) tashkil qilgan. Eng kamlari esa axborot va aloqa 1 ta (0,4%), tashish va saqlash 4 ta (1,6 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishda 7 ta (2,9%) ni tashkil qilgan. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi faoliyat turiga to‘g‘ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqada, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, tashish va saqlash faoliyat turlariga to‘g‘ri keladi.

Kichik tadbikorlik subyektlari soni
(2022- yil 1- iyul holatiga, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- iyul holatiga, birlikda)



**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(1- iyul holatiga, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>mikrofirmalar</i>	<i>kichik korxonalar</i>
Qashqadaryo viloyati	34527	33148	1379
G'uzor	1836	1764	72
Dehqonobod	1576	1549	27
Qamashi	2470	2417	53
Qarshi	2501	2401	100
Koson	2828	2764	64
Kitob	2456	2329	127
Mirishkor	1402	1382	20
Muborak	1140	1103	37
Nishon	1519	1472	47
Kasbi	1635	1583	52
Ko'kdala	940	918	22
Chiroqchi	1977	1919	58
Shahrisabz	1562	1501	61
Yakkabog'	2337	2264	73
Qarshi sh.	6499	6046	453
Shahrisabz sh.	1849	1736	113

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Faoliyat ko'rsatmayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan yoki belgilangan muddatda ustav jamg'armalarini shakllantirmagan hamda tugatish jarayonida bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lgan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi - ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- iyul holatiga (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.